
Sayyor qabullarda murojaatlar yechimini topmoqda

Joriy yilning 14-fevral kuni Karnaychi mahalla fuqarolar yig'ida Qo'shtepa tumani hokimi, tuman 1-sektori rahbari Ilyos Valeriyevich Novikovning mahalla fuqarolari uchun sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Qabul davomida tuman fuqarolari tomonidan elektr, davolanish uchun moddiy yordam, ichimlik suvi, ko'chalarni asfritish, suyultirilgan gaz baloni, yoshlar uchun futbol maydonchasi qurish uchun joy va boshqa masalalarda murojaatlar qilindi.







Qabulda hokim fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birma-bir tingladi. Ular qo'ygan muammolar bo'yicha hokim o'rinbosarlari va boshqa tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rdi. Ayrim murojaatlarda ko'rsatilgan masalalarni hal etish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriq va ko'rsatmalar berdi.





2020-02-18 15:22:57